



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

развитие промышленной базы и повышение конкурентоспособности национальной экономики являются ключевыми условиями эффективной интеграции.

Проведённые расчёты и аналитические выводы позволяют утверждать, что интеграция с Китаем имеет стратегическое значение для экономического развития Узбекистана, однако требует сбалансированного и прагматичного подхода.

Список использованной литературы:

1. Balassa Béla B. The Theory of Economic Integration. – London, 1961.
2. Krugman Paul P., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. – Pearson.
3. Viner Jacob J. The Customs Union Issue. – New York, 1950.
4. Todaro Michael M., Smith S. Economic Development. – Pearson.
5. Сидоренко А.В. Международная экономическая интеграция. – М.: Юрайт, 2020.
6. Юсупов А.М. Внешнеэкономические связи Узбекистана. – Ташкент, 2021.
7. Киреев А.П. Международная экономика. – М.: Юрайт, 2019
8. Shanghai Cooperation Organisation. Official documents.
9. Eurasian Economic Commission. Analytical materials.
10. Rolland N. China’s Eurasian Century? – National Bureau of Asian Research.
11. Summers T. China’s New Silk Roads. – Chatham House Report.
12. Belt and Road Initiative. Official Portal Materials.

UDK:338

**O‘ZBEKISTONDA AGRAR MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA RESURS
TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MASALALARI**

**ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩИХ ТЕХНОЛОГИЙ В
СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ АГРАРНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**ISSUES OF IMPLEMENTING RESOURCE-SAVING TECHNOLOGIES IN IMPROVING
AGRARIAN RELATIONS IN UZBEKISTAN**

Olimjanova Sh.O. O‘zMU Iqtisodiyot fakulteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasida dotsenti
Eshonqulov I.N. O‘zMU Iqtisodiyot fakulteti-1-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda agrar munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish masalalari hamda qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy va tashkiliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, agrar sohada davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlari hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: agrar munosabatlar, davlat tartibga solish mexanizmi, resurs tejamkorlik, yer va suv resurslari, gektar, subsidiya, agrar siyosat, sug‘oriladigan yerlar, zamonaviy texnika, texnologiya.

В статье анализируются вопросы совершенствования механизма государственного регулирования аграрных отношений в Узбекистане, а также экономико-организационные аспекты внедрения ресурсосберегающих технологий в сельском хозяйстве. Также изучаются основные направления государственной политики в аграрной сфере, механизмы эффективного использования земельных и водных ресурсов, а также возможности повышения эффективности производства за счет применения современных инновационных технологий.

Ключевые слова: аграрные отношения, механизм государственного регулирования, ресурсосбережение, земельные и водные ресурсы, гектар, субсидия, аграрная политика, орошаемые земли, современная техника и технология

This article analyzes the issues of improving the mechanism of state regulation of agrarian relations in Uzbekistan and the economic and organizational aspects of the introduction of resource-saving technologies in agriculture. Also, the main directions of state policy in the agricultural sector, mechanisms for the effective use of land and water resources, and the possibilities of increasing production efficiency through the use of modern innovative technologies are studied.

Keywords: agrarian relations, state regulation mechanism, resource efficiency, resource saving, land and water resources, hectare, subsidy, agrarian policy, irrigated lands, modern equipment, modern machinery technology

Bugungi kunda butun dunyoda agrar sohani rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholining sifatli meva-sabzavotlarga bo'lgan talabini qondirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qulay agrobiznes muhit va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, soha boshqaruvida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda qishloq xo'jaligida ilm-fan yutuqlarini joriy qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, iqlim o'zgarishi jarayonlarining kuchayib borishi, suv resurslarining cheklanganligi hamda qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish zarurati agrar ishlab chiqarishda resurs tejankor texnologiyalarni keng qo'llashni taqozo etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimlari, tuproqqa minimal ishlov berish texnologiyalari, raqamli qishloq xo'jaligi tizimlari, shuningdek energiya tejankor texnika va uskunalardan foydalanish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Resurs tejankor texnologiyalarni amaliyotga joriy etish natijasida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda tuproq unumdorligini saqlab qolish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, bunday texnologiyalarni qo'llash, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, ekologik muvozanatni saqlash va qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash joiz, biz uzoq yillar mobaynida yerga bo'lgan munosabatimizni o'zgartirmasdan ma'lum turdagi mahsulotlarni yetishtirishni fermer va dehqon xo'jaliklariga tashlab qo'ydik. Natijada yer unumdorligi pasaydi, mahsulot yetishtirishda kimyoviy moddalardan tartibsiz foydalanish va sanoat chiqindilari kengayib ketdi, aholini zarur qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashda muammolar yuzaga keldi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning holati quyidagicha:

- sho'rlanish muammosi;
- cho'llanish muammosi;
- kimyoviy ifloslanish;
- texnogen buzilish;
- eroziya jarayoni;
- unumdorlik va bonitet balining pasayishi.

Bu masalalarni hal etish, qishloq xo'jaligining asosi bo'lgan, tuproqlarni har tomonlama o'rganish, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va amalda qo'llash yo'li bilan bajarilishi mumkin [1]. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish, 200 ming gektar paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hamda aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berish, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish orqali qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish hisobiga dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish maqsadi belgilangan [2].

Ushbu holat keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga ustuvorlik qaratilishidan dalolat beradi.

Shu bois agrar sohada olib borilayotgan davlat siyosatida agrar munosabatlarni samarali tartibga solish, yer va suv resurslaridan to‘g‘ri foydalanishni ta‘minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birgalikda, yerlarni sho‘r yuvishga tayyorlash va sho‘r yuvish ishlarini agrotexnik qoidalar asosida sifatli va tizimli tashkil etishga, suv iste‘molini nazorat qilishga yetarlicha e‘tibor berilmayapti.

Suvni tejaydigan sug‘orish va lazerli yer tekislash texnologiyalari joriy qilingan maydonlarda yerlarni sho‘r yuvishga tayyorlash va sho‘r yuvish ishlarini amalga oshirish yuzasidan xorijiy tajribalarni o‘rganish, yangi ilmiy-tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish soha talablaridan ortda qolmoqda [3].

Iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining kamayib borishi va transchegaraviy suv taqsimoti sharoitida agrar sohani barqaror rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Agrar munosabatlarni tartibga solishda resurs tejamkor yondashuvlarni kengaytirish oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Suv, yer va yoqilg‘i resurslaridan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish tannarxi kamayib, fermer xo‘jaliklarining daromadlilik oshadi. Natijada agrar sohada barqaror iqtisodiy o‘sish va ekologik muvozanatga erishish imkoniyati kengayadi.

Sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanishi (1,7 mln gektargacha qisqartirish zarurati), suv yo‘qotishlarining yuqoriligi va eskirgan nasos stansiyalarining energiya sarfi yuqoriligi agrar ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda [4].

Respublikada sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini va suv ta‘minotini yaxshilash hamda mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning sho‘rini yuvish uchun foydalaniladigan va tasdiqlangan sho‘r yuvish normalari doirasida ishlatiladigan suv resurslarini ulardan foydalanganlik uchun soliqdan ozod qilish, suvni tejaydigan (tomchilatib, yomg‘irlatib va boshqa) sug‘orish texnologiyalarini joriy qilishga davlat tomonidan subsidiyalar ajratish hamda yer solig‘i bo‘yicha imtiyoz berish tizimi yaratildi.

Jumladan, sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bilan birga suv xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar va kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi qabul qilindi.

Konsepsiyada aholini va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini suv bilan barqaror ta‘minlash, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, suv xo‘jaligi obyektlarining ishonchli ishlashini ta‘minlash hamda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish belgilab qo‘yildi.

Bugun suv resurslaridan nafaqat samarali foydalanish, balki ilmiy yondashish orqali tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini keng joriy etish natijasida yuqori hosildorlikka erishish, tuproq tabiiy unumdorligini saqlab qolish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bunda nafaqat fermer xo‘jaliklari, balki, dehqon xo‘jaliklariga ham irrigatsiya va melioratsiya xizmatlari ko‘rsatilish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, suv xo‘jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish, xavfsizligini ta‘minlash, yirik suv xo‘jaligi obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida boshqarilishi tashkil etilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etish davlat tomonidan rag‘batlantirib kelinmoqda. Shuningdek, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalalari bo‘yicha davlatlararo munosabatlar rivojlanmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari manfaatlarini o‘rtasidagi do‘stona muhit yaratilib, suv resurslarini birgalikda boshqarish mexanizmlari joriy etilmoqda.

Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha rivojlangan xorijiy davlatlarning jumladan, Turkiya, Xitoy, Avstraliya, AQSH va boshqa davlatlarning ilg‘or tajribalari qo‘llanilib

kelinmoqda. Bunda respublikamizda tomchilatib, yomg‘irlatib va disket kabi usullarda sug‘orish, shuningdek, yerlarni lazer uskunali yer tekislagichlar bilan tekislash texnologiyalarini joriy qilinmoqda.

Qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish davlat agrar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa agrar sohada innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Resurs tejamkor texnologiyalar qishloq xo‘jaligida yer, suv, energiya hamda boshqa ishlab chiqarish resurslaridan samarali va oqilona foydalanishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalar majmuasini anglatadi. Ushbu texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish jarayonida resurslar sarfini kamaytirish, hosildorlikni oshirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish:

- suv sarfini 30–40 foizgacha kamaytirish;
- nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste‘molini 30 foizga qisqartirish;
- hosildorlikni 30–35 foizga oshirish;
- ekologik barqarorlikni ta‘minlash imkonini beradi.

Shuningdek, kollektor va drenaj tarmoqlaridan foydalaniladigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan ozod etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois agrar munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solishda iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Xususan, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar hamda davlat-xususiy sheriklik asosidagi mexanizmlarni rivojlantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Suv tejovchi texnologiyalar bilan qamrab olingan yer maydonlarini 2 mln gektarga, jumladan tomchilatib sug‘orishni 600 ming gektarga yetkazish, irrigatsiya tizimlarining foydali ish ko‘effitsiyentini 0,73 ga oshirish, 18,7 ming km tuproq o‘zani kanallarining 13,1 ming km qismini beton qoplamaga o‘tkazish kabi strategik vazifalar ilmiy asosda yoritiladi [5].

Agrar munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solishda resurs tejamkor texnologiyalarni integratsiyalashgan holda qo‘llashning nazariy asoslarini takomillashtiradi. Davlatning tartibga solish funksiyalari (rejalashtirish, rag‘batlantirish, nazorat va monitoring) suv tejovchi innovatsiyalar bilan uyg‘un holda ko‘rib chiqiladi.

Amaliy jihatdan:

- irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish dasturlarini ishlab chiqishda;
- suv resurslari balansini shakllantirishda;
- davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishda;
- hududiy agrar rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Yomg‘ir va qor suvlarini maxsus drenaj tizimlari orqali kanallar hamda daryolarga yo‘naltirish suv resurslaridan oqilona foydalanishga yordam beradi. Bunday usul orqali tabiiy yog‘in suvlari bekorga yo‘qolib ketmaydi, balki sug‘orish va boshqa xo‘jalik ehtiyojlari uchun qayta ishlatilishi mumkin. Shu bilan birga, to‘plangan suv shahar va qishloq infratuzilmasini ham himoya qiladi.

Yer va suv resurslaridan samarasiz foydalanishning oldini olishni, yerlarning unumdorligini oshirish va suvni tejovchi agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishni (agrotexnik reglament) ham huquqiy jihatdan tartibga solish zarur.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sohasida resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish fermerlar daromadlarini ikki baravar oshirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni yillik 5% ga o‘shirishni ta‘minlashga qaratilgan strategik zarurat hisoblanadi. Biroq, ushbu texnologiyalar orqali agrar munosabatlarni samarali takomillashtirishga hozirgi kunda bir qator muhim muammolar to‘sqinlik qilmoqda:

Moliyaviy va iqtisodiy to‘siqlar-yuqori boshlang‘ich xarajatlar: Tomchilatib sug‘orish va aniq dehqonchilik kabi texnologiyalar uchun dastlabki investitsiyalar kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklari uchun katta to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Moliyaga yetarli kirish imkoniyati yo‘qligi: Ayniqsa qishloq hududlaridagi fermerlar zamonaviy texnika uchun kredit yoki lizing dasturlaridan foydalanishda qiynalmoqda.

Narx belgilash mexanizmlarining yetishmasligi: Suv uchun rasmiy narx belgilash tizimi mavjud emasligi suvdan samarasiz foydalanishga va resurs tejovchi texnologiyalarga xususiy investitsiyalarning kamligiga olib keladi.

Eskirgan irrigatsiya tizimlari: Irrigatsiya tarmoqlari ta'mirga muhtoj va ko'plab nasos stansiyalari esa bir necha yillardan beri ishlatilmoqda. Bu energiya samaradorligining pasayishiga va suv yo'qotishlariga sabab bo'lmoqda.

Raqamli infratuzilma kamchiligi: Ko'plab qishloq hududlarida barqaror internet va ishonchli elektr ta'minoti yo'q, bu esa raqamli qishloq xo'jaligi va "aqlli" sensorlardan foydalanishni cheklaydi.

Uskunalarga xizmat ko'rsatish: Yangi, yuqori texnologiyali qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash va xizmat ko'rsatish uchun tashkil etilgan servis markazlari yetishmaydi.

Raqamli savodxonlik pastligi: Innovatsion raqamli vositalar bilan ishlay oladigan malakali kadrlar va mutaxassislar yetishmaydi.

Fermerlarning an'anaviy usullarga moyilligi va innovatsiyalarni sekin qabul qilishi: An'anaviy dehqonchilik usullari ko'pincha yangi texnologiyalarga mos kelmaydi.

Tuproq degradatsiyasi: Qishloq xo'jaligi yerlarining 34% i sho'rlanish va eroziya tufayli zararlangan, bu esa standart resurs tejovchi texnologiyalarni qo'llashni qiyinlashtiradi [6].

Zamonaviy qishloq xo'jaligining eng muhim belgilaridan biri — intensivlashtirish va sintetik o'g'itlar, pestitsidlar hamda yerni jadal mexanik ishlashdan nooqilona foydalanish bo'lib, bu asrning eng yirik ekologik muammolaridan birini yuzaga keltirdi. Iqlim o'zgarishi, qishloq xo'jaligini yuritish usullari va boshqa tashqi omillar bu muammolarni yanada kuchaytirdi. Tuproq degradatsiyasi inqirozining jiddiyligi va dolzarbligi butun dunyoda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda yaqqol his qilinmoqda.

Hozirgi tuproq degradatsiyasi inqirozi jahon qishloq xo'jaligida zaiflashgan tuproqlarga iqlim ta'sirini kamaytirishga qaratilgan tizimli muammoni hal qilish imkoniyatini ham yaratadi. Tuproq degradatsiyasining hozirgi tendensiyasini hisobga olganda, tuproqlarni ularning tabiiy holatiga qayta tiklash amalda deyarli mumkin emas. Shunga qaramay, biz tuproq tizimlari haqidagi tushunchamizni yaxshilash va eskirgan yondashuvlar hamda tuproqqa bo'lgan munosabatimizni qayta ko'rib chiqish uchun faol, dalillarga asoslangan, jamoaviy va oldindan chora ko'rishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishimiz zarur.

Suv tanqisligi: O'zbekistonning asosiy suv resurslarini davlatlararo Amudaryo, Sirdaryo va ularning irmoqlari, Qashqadaryo va Zarafshon daryolaridan iborat ustki suvlar tashkil etadi. Amudaryoning asosiy oqimi Tojikistonda, Sirdaryo esa Qirg'iziston hududida shakllanadi. Amudaryo va Sirdaryoning suv resurslari daryolarning tog'lardan paydo bo'lish joyi yaqinida joylashgan gidrometrik stansiyalar tomonidan aniqlanadi. Shunday esa-da, ko'rib chiqilayotgan har bir havzada gidrometrik uslublar bilan hisobga olinmaydigan ko'plab soy suvlari, tog'lar va adirlardan oqib keladigan yerosti suvlari, qor va yomg'irlardan iborat hisobga olinmaydigan oqova suvlar mavjud. O'zbekistonga suv resurslarining 80 foizi boshqa davlatlardan keladi, 20 foizi mamlakatda hosil bo'ladi. Tahlillarga ko'ra, 2030-yilga borib O'zbekistonga 7 mlrd kub metr suv yetishmaydi. Bundan 30-40 yil avval yaratilgan infratuzilma esa jiddiy modernizatsiyani talab qiladi. Suv resurslari bilan ta'minlanish kamayib, yangi obyektlar va aholi soni ko'payib bormoqda [7].

Hozirgi kunda butun dunyoda suv tanqisligi global muammoga aylanmoqda. Shu bilan birga mintaqada transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalasi ham keskin muammolar tug'dirmoqda.

Bu muammo Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab o'tmagan. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, 2050-yilgacha suv resurslari Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda [8].

Xususan, Afg'onistonda barpo etilayotgan Qo'sh-Tepa kanali loyihasi Amudaryo havzasidagi suv taqsimotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yirik gidrotexnik inshoot hisoblanadi. Mazkur kanalning uzunligi 285 km, eni 100 metr va chuqurligi 8,5 metrni tashkil etadi. Loyihaning to'liq ishga tushirilishi natijasida Amudaryo oqimining taxminan 30 foizigacha qismi kanal orqali yo'naltirilishi prognoz qilinmoqda [9].

Ushbu holat Amudaryo quyi oqimida joylashgan davlatlar, jumladan O‘zbekiston uchun suv resurslari hajmining kamayishi xavfini yuzaga keltiradi. Sug‘oriladigan yerlarning asosiy qismi Amudaryo suviga bog‘liq ekanligini hisobga olsak, suv ta‘minotidagi qisqarish agrar ishlab chiqarish barqarorligi, hosildorlik darajasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, Qo‘sh-Tepa kanali qurilishi O‘zbekistonda suvdan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish, irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda suv tejovchi texnologiyalarni jadal joriy etish zaruratini keskin kuchaytiradi.

Xususan, tomchilatib sug‘orishning afzalliklari: suv sarfini 30—50% ga kamaytiradi, ekinlar hosildorligi ortadi, begona o‘tlar kamayadi (sug‘orish quvurlari o‘rnatilmagan qator oralari quruq bo‘lib, begona o‘t chiqmaydi), mehnat sarfi kamayadi. [10].

Bundan tashqari, magistral va xo‘jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini oshirish, suv hisobini yuritishning raqamli tizimlarini joriy etish, nasos stansiyalarini energiya tejamkor va muqobil energiya manbalariga o‘tkazish kabi chora-tadbirlar suv taqchilligi sharoitida agrar sektorning barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Qo‘sh-Tepa kanali qurilishi mintaqada suv resurslarini boshqarishning yangi sharoitlarini shakllantirmoqda. Bu esa O‘zbekiston agrar siyosatida resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish, suv balansini ilmiy asosda ishlab chiqish va transchegaraviy suv hamkorligini takomillashtirishni strategik ustuvor yo‘nalishga aylantirishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda agrar munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish orqali takomillashtirish bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- suv resurslaridan samarali foydalanishni ta‘minlash maqsadida tomchilatib sug‘orish, yomg‘irlatib sug‘orish va boshqa zamonaviy sug‘orish texnologiyalarini keng joriy etish hamda ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish;

- yer resurslaridan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish uchun melioratsiya va tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish;

- qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalar va “aqlli qishloq xo‘jaligi” (smart agriculture) elementlarini rivojlantirish orqali resurs sarfini monitoring qilish va optimallashtirish tizimlarini joriy etish;

- davlat tomonidan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va soliq preferensiyalari orqali resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etuvchi xo‘jalik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish;

- agrar sohada faoliyat yuritayotgan ishlab chiqaruvchilar uchun zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni oshirish maqsadida o‘quv dasturlari, treninglar va maslahat xizmatlarini kengaytirish;

- resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hamda standartlar va talablarni xalqaro tajribaga moslashtirish;

- ekologik barqarorlikni ta‘minlash maqsadida resurslardan foydalanish samaradorligini baholash indikatorlarini ishlab chiqish va monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish;

- xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirishni rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini kengaytirish.

Ushbu chora-tadbirlar agrar munosabatlarni tartibga solishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ekologik barqaror rivojlanishni ta‘minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning hududlarida suv tejovchi texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish kelajakda mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashning asosiy mexanizmlaridan biri bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni „O‘zbekiston-2030“ strategiyasi to‘g‘risida. Toshkent: Hukumat nashriyoti, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining agrar sohani isloh qilishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2017–2024.

3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkichlari to‘plami. – Toshkent, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.
5. Sh.O.Olimjanova, N.G.Muminov, G.M.Zaxirova, F.M.Xalmatjanov. «Tarmoqlar iqtisodiyoti». Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent.: «Alfraganus University», 2025.

UDK:336.7

**O‘ZBEKISTONDA NEFT-GAZ SANOATIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING
INSTITUTIONAL MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**

**ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ
ИНВЕСТИЦИЙ В НЕФТЕГАЗОВУЮ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ УЗБЕКИСТАНА**

**INSTITUTIONAL PROBLEMS AND SOLUTIONS FOR ATTRACTING INVESTMENTS
INTO THE OIL AND GAS INDUSTRY IN UZBEKISTAN**

Valikulov Sherzod Zaynitdinovich Toshkent davlat texnika universiteti
Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbekistonda neft va gaz sanoati korxonalarida investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirishda loyihalarni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari haqida yozilgan. Bunda, ushbu yo‘nalishga oid qonun va qarorlarni tahlillari keltirilgan va kerakli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: investitsion faoliyat, investorlar, samaradorlik, qaror, vakolatli organ, nizom, normativ-huquqiy hujjat.

Данная статья посвящена организационно-правовым основам реализации проектов по повышению экономической эффективности инвестиционной деятельности на предприятиях нефтегазовой отрасли Узбекистана. В ней приведён анализ соответствующих законов и постановлений в данной сфере, а также сформированы необходимые выводы.

Ключевые слова: Инвестиционная деятельность, инвесторы, эффективность, решение, уполномоченный орган, устав, нормативно-правовой акт.

This article discusses the organizational and legal foundations for implementing projects aimed at increasing the economic efficiency of investment activities in oil and gas industry enterprises in Uzbekistan. It analyzes relevant laws and regulations in this field and formulates the necessary conclusions.

Keywords: investment activity, investors, efficiency, decision, authorized body, regulation, regulatory legal act.

2030 – yilga qadar O‘zbekistonda tabiiy gaz qazib olish hajmi 66,1 milliard kub metrni tashkil etishi rejalashtirilgan. O‘z navbatida iste’mol 56,5 milliard kub metrga yetadi. Bu ichki iste’molchilar talabini qondirish va tabiiy gazni xom ashyo sifatida chuqur qayta ishlash ustuvorligiga o‘tishni anglatadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan tabiiy gazni chuqur qayta ishlash hamda uning samaradorligini oshirish va bozor munosabatlariga o‘tkazish maqsadida tarmoqni isloh qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.